

BOLA TARBIYASI VA ULARNING HUQUQLARINI TA'MINLASHGA OID ILMIY BILIMLARNING SHAKLLANISHI HAQIDA

Abdusamatova Nurxon Sobirjon qizi

JDPU O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qtuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda bola huquqlarining tarixiy, diniy-ma'naviy va huquqiy ildizlari hamda ularning zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimidagi ifodasi kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharq mutafakkirlarining bola tarbiyasi va ota-ona mas'uliyatiga oid qarashlari, mustaqillik yillarida O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilgan normativ-huquqiy islohotlar, xususan, xalqaro standartlar asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari hamda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, maktabgacha ta'lim, tarixiy-huquqiy ildizlar, normativ-huquqiy islohotlar,

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Ushbu tizimning samarali faoliyati, avvalo, puxta ishlab chiqilgan normativ-huquqiy asoslar bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston hududida maktabgacha ta'lim faoliyati turli tarixiy davrlarda turlicha huquqiy asoslar bilan tartibga solingan bo'lib, ularning mazmuni davlat tuzumi va ijtimoiy-siyosiy sharoitga mos ravishda o'zgarib borgan.

Bola huquqlari va tarbiyasi masalasi insoniyat tafakkuri tarixida qadimiy ildizlarga ega. Markaziy Osiyo hududida shakllangan zardushtiylik ta'limoti va uning muqaddas manbasi bo'lgan "Avesto"da hayot eng oliy ne'mat sifatida talqin qilinadi. *Videvdod (Vendidad)* qismida inson, xususan **bolaning hayotiga tajovuz qilish eng og'ir gunohlardan biri** sifatida baholanadi. Bolaga nisbatan zo'ravonlik, beparvolik yoki zarar yetkazish Asha - adolat va haqiqat qonuniga zid harakat deb ko'rsatilgan³. Bu holat zamonaviy huquqiy tushunchadagi "**bola yashash huquqi**" tamoyiliga mos keladi. "Avesto"da bolaning tarbiyasi faqat shaxsiy masala emas, balki jamiyatning oldidagi burj sifatida ko'riladi. Ota-onaning farzandini tarbiyalashdagi beparvoligi jamiyat tartibiga tahdid sifatida baholanadi⁴. Bu yondashuv maktabgacha ta'limning hozirgi kundagi ijtimoiy vazifasi - oilani pedagogik nuqtai nazardan qo'llab-quvvatlash va bolani jamiyatga moslashtirish g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir.

Islom huquqi (fiqh) musulmon jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini tartibga soluvchi asosiy tizimlardan biridir. Movarounnahr hududi IX–XII asrlarda hanafiylik maktabining yirik ilmiy markazlaridan biriga aylangan. Shu ilmiy muhitda yaratilgan asarlar orasida Muhammad ibn Mahmud Ustrushaniy tomonidan yozilgan "**Jomi' ahkom as-sig'or**" (bola huquqlari kodeksi) muhim o'rin tutadi. Ushbu asar islom huquqida bolalar huquqiy maqomi va himoyasiga bag'ishlangan maxsus fiqhiy asardir.

³ "Avesto". - Toshkent: Fan, 2001. – B. 69

⁴ "Avesto"... - B. 113.

“Jomi’ ahkom as-sig’or” hanafiy fiqh maktabida bolalar masalasini alohida institut sifatida tizimlashtirgan muhim manbalardan hisoblanadi. Asarda bolalarning turli masalari shariy asosda yoritilib tizimlashtirilgan. Bola tug‘ilganidan to voyaga yetganiga qadar qanday huquqlari mavjudligi batafsil yoritilgan. Xusussan, balog‘atga yetmagan bolaning nafaqasi ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy bilan ta’minlash otaning burchidir⁵. Bu hukmning dalili Qur’oni karimdan olingan. Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Ularni me’yorida oziqlantirish va kiyintirish otaning zimmasidadir” (Baqara, 233). Agar ota qariligi sababli mehnatga layoqatsiz bo‘lsa yoki o‘tirib qolgan bo‘lsa, tilamchilik qilib, bolalariga nafaqa beradi⁶. Bolalarni yashash huquqini himoya qilish maqsadida Umar (r.a) yangi farzand tug‘ilgan oilaga nafaqa – pul berish qonunini joriy qiladi. Tug‘ilgan chaqaloq hokim yoki hukumat xodimi, oddiy ishchi yoki oddiy odam farzandi bo‘ladimi, baribir. Asarda, vasiylik turlari, bolalarga zakot berish, bolaning fitr sadaqasi otaning zimmasidan qachon soqit bo‘lishi, bolaga valiylik qilish, to‘g‘ri xatna qilish, g‘ayri musulmonlarning bolalari, bolaning qulog‘ini teshish, bolalar nafaqasi, bolalarga salom berish, balog‘atga yetmagan bolaning qurbonligi kabi turli jihatlar ochib berilgan. Muallifning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo fiqh maktabida bolalar huquqi masalasi sud amaliyotida tez-tez uchragan va mustaqil tahlilni talab etgan.

“Al-Adab al-Mufrad” Imom Buxoriyning axloq va odob masalalariga bag‘ishlangan hadis to‘plamidir. Asarda ota-ona hurmati, qarindoshlik, mehr-oqibat, bolalarga munosabat, ijtimoiy adolat kabi masalalar keng yoritiladi. Asarda “Kichiklarga rahm qilmagan va kattalarni hurmat qilmagan bizdan emas”⁷ deyiladi. Bu hadis bolaga nisbatan mehr-muruvvatni diniy-axloqiy majburiyat sifatida belgilaydi. Zamonaviy maktabgacha ta’limda ham bolaga yo‘naltirilgan pedagogika, ya’ni child-centered approach asosiy tamoyil hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan “Qutadg‘u bilig” asari nafaqat davlat boshqaruvi va siyosiy-falsafiy tafakkur namunasi, balki chuqur tarbiyaviy konsepsiyani o‘zida mujassam etgan didaktik asardir. Unda yosh avlod tarbiyasi jamiyat va davlat ravnaqi bilan bevosita bog‘lanadi. “Otaning ish-amali o‘g‘liga singsa, uning xulqida jilvagar bo‘ladi. Nazoratdan tashqaridagi bola bebosh va yaramaslik sari og‘adi. Erka bolib o‘sgan o‘g‘il-qizlar xatti-harakati ota-onaga mung va alam keltiradi. Bolani tergab-nazorat qilish ota-ona yuzining yorug‘ligini ta’minlaydi.”⁸. Asarda ota-onaning shaxsiy namunasi farzand tarbiyasida hal qiluvchi omil sifatida talqin qilinadi. Muallifga ko‘ra, bola ko‘proq nasihatdan emas, balki kattalarning amaliy xulq-atvoridan ta’sirlanadi.

Abu Homid G‘azzoliy o‘zining “Mukoshafat ul-qulub” asarida bola tarbiyasini inson kamoloti va jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin qiladi. G‘azzoliy bola qalbini “pok javohir”ga qiyoslaydi. Unga ko‘ra: bola ota-onaga

⁵ Муҳаммад ибн Маҳмуд Уструшаний. Жомий аҳком ас-сиғор (бола ҳуқуқлари кодекси). М. Атаев таржимаси– Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 35.

⁶ Муҳаммад ибн Маҳмуд Уструшаний. Жомий аҳком ас-сиғор ... – Б. 39.

⁷ Имом Бухорий. Ал-адаб ал-муфрат. – Тошкент: Мавароуннаҳр, 2006. -Б. 333.

⁸ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (“Saodatga eltuvchi bilim”). – Toshkent: Cho‘lpon, 2007. – B 49-50.

berilgan ilohiy omonatdir, uni tarbiya orqali shakllantirish, bolaga to‘g‘ri tarbiya berish, uni halol va pok rizq bilan ta‘minlash, yaxshi muhit yaratish, ilm va odobga o‘rgatish ota-onaning asosiy burchi ekanligini ta‘kidlaydi⁹. Asarda qalb pokligi va ichki tarbiya markaziy o‘rinda turadi. Bolaga nisbatan qo‘pol munosabat bo‘lish, zo‘ravonlik yoki haddan tashqari jazolash qattiq qoralangan.

Yurtimizga Islom kirib kelgandan to sovet davrigacha bola huquqi masalalari asosini ajdodlarimiz milliy qadriyatlari bilan qorishib ketgan shariat va hanafiy fiqh tashkil etgan. Shu asosda bolalarning manfaatlari himoya qilingan. Movarounnahr fiqh maktabida ishlab chiqilgan bola huquqlariga oid qoidalar zamonaviy maktabgacha ta‘lim tizimining huquqiy-falsafiy asoslari bilan uzviy bog‘liqdir.

Bolalar saodati va ularning huquqlari doimo xalqaro hamjamiyat diqqat-e‘tiborini tortib kelgan. Bola huquqlariga oid dastlabki xalqaro hujjatlar XX asr boshlarida qabul qilina boshladi. Jumladan, 1919-yilda Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan Sanoatda ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi Konvensiya qabul qilindi¹⁰. Ushbu hujjat bolalar mehnatini cheklash va ularni ekspluatatsiyadan himoya qilishga qaratilgan dastlabki xalqaro normalardan biri hisoblanadi.

Bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi eng muhim hujjat 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya hisoblanadi¹¹. Ushbu Konvensiya 1990-yilda kuchga kirgan bo‘lib, bugungi kunda deyarli barcha davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston Respublikasi 1992-yilda Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qildi¹². Bu orqali davlat bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi. Mazkur ratifikatsiya O‘zbekistonning inson huquqlariga sodiqligini namoyon etgan muhim siyosiy-huquqiy qadam bo‘ldi.

Xalqaro majburiyatlarning milliy huquqiy tizimga joriy etilishi esa ichki normativ-huquqiy bazani shakllantirish orqali amalga oshirildi. Shu jihatdan dastlabki fundamental huquqiy qadamlardan biri - 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun bo‘ldi. Mazkur qonun mustaqil O‘zbekiston ta‘lim tizimining asosini yaratib, uzluksiz ta‘lim konsepsiyasini belgiladi hamda maktabgacha ta‘limni ta‘lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida e‘tirof etdi.

1992-yilda Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi xalqaro-huquqiy majburiyatlarni belgilab bergan bo‘lsa, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ushbu majburiyatlarning milliy qonunchilikda amaliy ifodasiga aylandi.

⁹ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат-Ул Кулуб Миразиз Аъзам таржимаси. – Тошкент: «Адолат», 2002. -Б. 29-30.

¹⁰ International Labour Organization. *Minimum Age (Industry) Convention*. – 1919. - B.184. (Bolalarni sanoat ishlariga qabul qilishning minimal yoshini belgilash to‘g‘risidagi konvensiya (Izoh: Kuchga kirgan sana: 1921-yil 13-iyun. Konvensiya 1937-yilda 59-sonli konvensiya va 1973-yilda 138-sonli konvensiya bilan qayta ko‘rib chiqilgan.))

¹¹ United Nations. *Convention on the Rights of the Child*. – 1989.

¹² <https://lex.uz/acts/-2595913> (internet saytiga 17.01.2026-yil. da murojat etildi) Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda 757-XII-sonli “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilish haqida”gi Qaroriga muvofiq qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 29-iyuldan kuchga kirdi

Bu jarayon bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro tamoyillaridan milliy huquqiy mexanizmlarga o'tish bosqichini anglatadi.

Qonunning 8-moddasi Maktabgacha ta'lim bo'lib, unga ko'ra Maktabgacha ta'limning vazifasi bola kamoloti asoslarini shakllantirishdan, uning bilimga qiziqishini, madaniy-axloqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini, ilmga muhabbat qo'yishini o'stirishdan, salomatligini mustahkamlashdan iboratdir. Maktabgacha tarbiya oilada va maktabgacha tarbiya muassasalarida olib boriladi¹³. Mazkur hujjat o'sha davr uchun **me'yoriy-huquqiy dastlabki hujjat** bo'lib, maktabgacha ta'limni ham uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy bo'g'ini sifatida qayta talqin qilishga yo'l ochdi.

1997-yilda ta'lim sohasida yangi bosqich boshlandi. 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tasdiqlandi¹⁴, ta'lim, tarbiya va kasbga o'qitishning huquqiy asoslari yanada tizimlashtirildi. Maktabgacha ta'lim tizimi to'g'risida qonunning II bobi ta'lim tizimi va turlari doirasidagi 11- moddasida maktabgacha ta'lim muassasalariga bag'ishlangan bo'lib, unda maktabgacha ta'limning maqsadi va amalga oshirilish shakllari huquqiy jihatdan belgilab berilgan - Mazkur moddaga muvofiq, Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi¹⁵. Ushbu norma maktabgacha ta'limning faqat davlat muassasalari bilan cheklanmasdan, nodavlat va muqobil shakllarda ham olib borilishiga huquqiy asos yaratadi hamda ta'lim tizimida **inklyuzivlikni, xilma-xillik tamoyillari orqali** mustahkamlaydi va bola huquqlarini xalqaro meyorlar asosida himoyalaydi.

Bola huquqlarini milliy darajada mustahkamlashda muhim bosqich 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan "**Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida**"gi **Qonun** bo'ldi¹⁶. Mazkur Qonunda bola manfaatlarining ustuvorligi prinsipi mustahkamlandi hamda quyidagi huquqlar tizimli ravishda belgilandi:

- yashash va rivojlanish
- ta'lim olish huquqi;
- sog'liqni saqlash;
- zo'ravonlikdan himoya;
- ijtimoiy himoya.

Qonunning qabul qilinishi bola huquqlarini alohida soha sifatida kompleks tartibga solishga xizmat qildi. Agar 1992–1997-yillardagi hujjatlar ta'lim tizimining umumiy asoslarini belgilagan bo'lsa, 2008-yilgi Qonun bola huquqlarini mustaqil normativ institut sifatida mustahkamladi.

¹³ https://nrm.uz/contentf?doc=175514_o'zbekiston_respublikasining_02_07_1992_y_636-xii-son_talim_to'g'risidagi_qonuni_%28eski_tahriri%29&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana (internet saytiga 25.01.2026-yil. da murojat etildi)

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – 1997-yil.

¹⁵ <https://lex.uz/docs/-16188> (internet saytiga 25.01.2026-yil. da murojat etildi)

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. – 2008-yil 7-yanvar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bola huquqlarining tarixiy, diniy-ma’naviy va huquqiy ildizlari zamonaviy xalqaro huquqda normativ shaklda mustahkamlangan bo‘lsa-da, uning ildizlari Sharq tafakkurida qadimdan mavjud bo‘lgan. O‘zbekiston mustaqilligi yillarda bola huquqlari xalqaro standartlar asosida mustahkamlandi. Bolaga tarbiya va ta’lim berish hamda barkamol insonlar bo‘lib yetishish uchun barcha sharoitlar va huquqiy asoslar yaratilgan. Farzandlarimizni yetuk insonlar bo‘lib yetishishi uchun tarixiy-ma’naviy merosni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bola huquqlariga rioya etilishini doimiy monitoring qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish va бу борада ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, sharq mutafakkirlarining bola tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy bola huquqlari konsepsiyasi bilan qiyosiy tahlil qiluvchi ilmiy izlanishlarni kengaytirish maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, O‘qituvchi, 1992. 160 b.
2. Abdullaeva M. Pedagogik diagnostika: nazariya va amaliyot. Toshkent, Fan va texnologiya, 2019. 208 b.
3. Макаренко А. С. Педагогическая поэма. Москва, Художественная литература, 1987. 512 с.
4. Слостёнин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика. Москва, Академия, 2013. 576 с.
5. Dewey J. Democracy and Education. New York, The Macmillan Company, 1916. 434 p.